PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

KELAJAK PEDAGOGINING SHAKLLANISHIDA AMALIYOTNING O‘RNI

Ummatova Dilnavo Ulug’bek qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti “Pedagogika” yo’nalishi
2-bosqich 9-24 guruh talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20330314

Annotatsiya: Mazkur maqolada kelajak pedagogining kasbiy shakllanishida pedagogik amaliyotning o‘rni va ahamiyati keng yoritiladi. Pedagogik amaliyot talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, o‘qituvchilik kasbiga moslashish hamda pedagogik mahoratini rivojlantirishda muhim bosqich sifatida tahlil qilinadi. Maqolada amaliyot jarayonida darsni rejalashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish masalalari ochib berilgan.

Shuningdek, inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilar bilan ishlashda yuzaga keladigan muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari hamda individual yondashuvning ahamiyati yoritiladi. Amaliyot davomida orttirilgan tajribalar, shakllangan kasbiy kompetensiyalar va pedagogik ko‘nikmalar ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Mazkur maqola kelajak pedagoglarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik amaliyot, kasbiy kompetensiya, o‘qituvchi, interfaol metodlar, inklyuziv ta’lim, pedagogik mahorat, o‘quvchi.

Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — har tomonlama barkamol, bilimli va malakali pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat. Bu jarayonda pedagogik amaliyot alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan amaliyot orqali talaba o‘zining nazariy bilimlarini real ta’lim muhitida sinab ko‘radi, o‘quvchilar bilan bevosita ishlash tajribasiga ega bo‘ladi va o‘qituvchilik kasbining mohiyatini chuqur anglaydi. Pedagogik amaliyot bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, u nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki pedagogik fikrlashni rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish va pedagogik vaziyatlarni to‘g‘ri baholashga xizmat qiladi.

Pedagogik amaliyot Guliston shahar 5-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida 6-apreldan 25-aprelgacha bo‘lgan muddatda tashkil etildi. Amaliyot davomida asosan 2-sinf o‘quvchilari bilan ishlanib, ayrim hollarda 7–8-sinflarda ham dars jarayonlari kuzatildi va ishtirok etildi. Bu esa turli yoshdagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini solishtirish va ularning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish imkonini berdi.

Darslar tarbiya, o‘qish savodxonligi, ona tili, tabiiy fanlar hamda huquq fanlari doirasida olib borildi. Har bir darsni tashkil etishda puxta rejalashtirish, maqsadni aniq belgilash va o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish muhim omil bo‘ldi. Dars jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish maqsadida turli interfaol metodlardan keng foydalanildi. Ayniqsa, o‘yinli metodlar, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash kabi usullar samarali natija berdi. O‘yinli metodlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni faol ishtirok etishga undadi. Savol-javob usullari esa

o‘quvchilarning bilimini aniqlash va mustahkamlashda muhim vosita bo‘ldi. Shu orqali o‘quvchilarning diqqatini jamlash, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda bilimlarini chuqurlashtirishga erishildi. Amaliyot jarayonida inklyuziv ta’limga jalb etilgan o‘quvchi bilan ishlashda ayrim qiyinchiliklar kuzatildi. Bunday o‘quvchilar bilan ishlash alohida yondashuvni, sabr-toqatni va mos metodlarni talab qiladi. Ushbu jarayon orqali individual yondashuvning ahamiyati, har bir o‘quvchining imkoniyatini inobatga olish zarurligi yaqqol namoyon bo‘ldi.

Shuningdek, amaliyot davomida o‘quvchilarning diqqatini jamlash, ularni tartibga chaqirish, sinf muhitini boshqarish, o‘quvchilar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnatish kabi ko‘nikmalar shakllandi. Baholash mezonlarini qo‘llash, o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash hamda ularni rag‘batlantirish usullari ham amaliy jihatdan o‘zlashtirildi. Bundan tashqari, pedagogik hujjatlar bilan ishlash, dars ishlanmalarini tuzish, kundalik va boshqa rasmiy hujjatlarni yuritish bo‘yicha ham muhim tajribaga ega bo‘lindi. Bu esa kelajakdagi pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan amaliy bilimlarni shakllantirdi.

Amaliyot rahbari — 26 yillik ish tajribasiga ega bo‘lgan malakali pedagog Eshonqulova Ra’no tomonidan berilgan maslahatlar va ko‘rsatmalar talabalarning kasbiy rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Ustozning boy tajribasi, darsni samarali tashkil etishdagi yondashuvi va o‘quvchilar bilan ishlash uslubi amaliyot jarayonida muhim o‘rnak bo‘ldi. Xulosa qilib aytganda, pedagogik amaliyot kelajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega. U talabalarga nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash, pedagogik ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘z ustida ishlash imkonini beradi. Amaliyot davomida orttirilgan bilim va tajribalar bo‘lajak pedagogning kelajakdagi faoliyatida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois pedagogik amaliyotni samarali tashkil etish, unga jiddiy yondashish va undan to‘g‘ri xulosa chiqarish har bir talaba uchun muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2019.
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
4. Amaliyot o‘tkazilgan maktab materiallari va kuzatuv natijalari.